

MA’NAVIY XAVFSIZLIKNI TA’MINLASHDA G’OYAVIY OMILLARNING O’RNI

Chirchiq davlat pedagogika universiteti 3-bosqich talabasi

*Risvaev Sarvar Zaydilla o‘g‘li
Ochilov Ulug‘bek Tolibjon o‘g‘li*

Annotatsiya : Ushbu maqolada hozirgi kunda ma’naviy xavfsizlikni ta’minlashda g’oyaviy omillarning bugungi kundagi ahamiyati, shaxs ma’naviyatida barqaror sog‘lom muhit shakillantrishning mazmuni ustida mulohaza qilamiz.

Kalit so‘zlar: Ma’naviy tahdid, g’oyaviy bo‘shliq, ommaviy madaniyat, komil inson, axborot huruji,

KIRISH:

Bugun dunyoda bo‘layotgan siyosiy jarayonlarning asosiy e’tiborida inson omilli o‘rin tutmoqda, zero har qanday davlat jamiyat hayotining ijtimoyi farovonligi uning istiqbolidan kelib chiqib o‘z oldiga qo‘ygan maqsadlarini amalga oshirishga harakat qiladi.

Yurtimizda amalga oshirilayotgan islohatlarning tub zaminida halqimiz orzu istaklari va har bir fuqaroning mulkiy va nomulkiy daxlsizligini ta’minlashga katta ahamiyat qaratilgan. Prezidentimiz o‘zlarning 20-dekabrdagi Oliy Majlisga murojatlarida Yurtimizda 2023-yilning “Insonga e’tibor va sifatli ta’lim” yilli “shu yurtda yashayotgan har bir insonning tinch va baxtli hayot kechirishi, uning sog‘lig‘i joyida bo‘lishi, yaxshi ta’lim olishi, oilasini tebratishi uchun qanday sharoit kerak bo‘lsa, hammasini yaratib berishga harakat qilayapmiz va bu yo‘ldan aslo to‘xtamaymiz”, - dedi davlatimiz rahbari.¹

Tinch va demokratik jamiyat qurish uchun ham jismonan va ruhan sog‘lom shaxslarni tarbiyalash bugungi kun uchun dolzarb muomolardan biri sifatida qaralmog‘i oliy qadriyatdir. Hozirgi kunda ma’naviy xavfsizlik tushunchasini anglashdan ko‘zlangan asosiy maqsad bu yurtimizda shakilanayotgan jamiyat uchun ma’naviy tahdidga aylanishi mumkin bo‘lgan milliy qadriyatimiz va ma’naviyatimiz chegaralarni yo‘qotishga qaratilgan buzg‘unchi g’oyaviy ta’sirlarning keng ko‘lamli tarqalishi oldini olish misolida aytishimiz mumkin.

Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga kirishish tantanali marosimiga bagishlangan Oliy Majlis palatalarining qo‘shma majlisidagi nutqlarida “Biz yoshlarga doir davlat siyosatini hech og‘ishmasdan, qat’iyat bilan davom ettiramiz. Nafaqat davom ettiramiz, balki bu siyosatni eng ustuvor

¹ <https://daryo.uz/2022/12/20/shavkat-mirziyoyev-2023-yilli>.

vazifamiz sifatida bugun zamon talab qilayotgan yuksak darajaga ko‘taramiz. Yoshlarimizning mustaqil fikrlaydigan, yuksak intellektual va ma‘naviy salohiyatga ega bo‘lib, dunyo miqyosida o‘z tengdoshlariga hech qaysi sohada bo‘sh kelmaydigan insonlar bo‘lib kamol topishi, baxtli bo‘lishi uchun davlatimiz va jamiyatimizning bor kuch va imkoniyatlarini safarbar etamiz”² deb ta‘kidlaganlari bugungi kun yoshlarining ma‘naviy qiyofasini shakillantrish nechog‘lik muhim masala ekanligi ayni damda ularning o‘z oldiga qo‘ygan maqsadlriga intilishar ekan avallo barcha sohada yuksak bilimga ega bo‘lishlari, yangi zamonaviy kasblarni yuksak maxorat ila o‘rganishlari, o‘zlarning orzu maqsadlarni millatimiz hayotiga daxldor ekanligini namoyon etishlari bugungi kun uchun o‘z ahamiyatini nomoyon qiladi. .

Birinchi prezidentimiz I.A.Karimov ma‘naviyat masalasiga quydagi ta‘riflarni berib o‘tadilar “Ma‘naviyat insonni ruhan poklash, qalban ulg‘ayishga chorlaydigan, odamning ichki dunyosi, iroddasini baquvat, iymon e‘tiqodini butun qiladigan, vijdonini uyg‘atadigan beqiyos kuch, uning barcha qarashlarning mezonidir.”³ Ma‘naviy xavfsizlik masalasida ushbu ta‘rifni berib o‘tishni lozim ko‘rdik, birinchi navbatda bugungi kun jamiyatda shakilanishi lozim bo‘lgan ma‘naviyat qanday bo‘lishi kerak va uning qanchalik g‘oyaviy omillarning ta‘siridan holi ekanligi haqida mulohaza qilsak bo‘ladi. Bugungi kunda g‘oyaviy omillar bu avvalo ommaviy madaniyat va din niqobi ostidagi aqidaparast va ekstremistik guruhlar g‘oyalarning targ‘iboti misolida ko‘rishimiz mumkin. Ushbu g‘oyaviy targ‘ibotlar ko‘lami har qachongidan ko‘proq ortib bormoqda buning asosiy sababi esa bir millatning tinchligi va uning osoyishtaligiga tahdid soluvchi harakatlar ortidan pul ortirish bo‘lib qoldi. Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev o‘zining ma‘naviyat haqidagi fikrlariga to‘xtalar ekan ushbu ta‘riflarni aytishni o‘rinli deb bildik “Agar jamiyat hayotining tanasi iqtisodiyot bo‘lsa, uning joni va ruhi ma‘naviyatdir. Biz yangi O‘zbekistonni barpo etishga qaror qilgan ekanmiz, ikkita mustahkam ustunga tayanamiz. Birinchisi – bozor tamoyillariga asoslangan kuchli iqtisodiyot. Ikkinchisi – ajdodlarimizning boy merosi va milliy qadriyatlarga asoslangan kuchli ma‘naviyat”⁴. Ma‘naviy xavfsizlik masalasida ushbu ta‘rifni berishdan asosiy maqsad inson qiyofasida uning tanasi bir moddiylikni kasb etsa uning ruhiy va aqliy olami bevosita ma‘naviyatning yaqol misolidir.

Prizidentimiz ta‘rifda shuni bilishimiz mumkinki insoning tashqi ko‘rinishi uni ulug‘vor qilib ko‘rsatmaydi uni faqat ichki olami ma‘naviy qiyofasi kim ekanligini belgilab beradi. Bir so‘z bilan aytganda bugungi jamiyat uchun uning ichki olami aqliy va ruhiy holatning qanchalik boy ekanligi bu bir millat uchun yangi imkoniyatlar eshigidir.

² Mirziyoyev Sh.M. “Erkin va farovon, demokratik o‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz” T.: “O‘zbekiston” – 2017. 56-bet.

³ I.A.Karimov “Yuksak ma‘naviyat yengilmas kuch” Toshkent -2008.

⁴ uz.news.prizident-ma‘naviyatni_yuksaltrish.bo‘yicha.yig‘lish

Hozirgi kunda O‘zbekiston iqtisodiy va siyosiy salohiyati dunyo rivojlangan davlatlari e‘tiboraligi barchamizga ma‘lum lekin o‘zbek xalqining hozirgi kunda halqimiz ma‘naviy xavfsizligi bu avvalo uning bardoshli, chidamli, taqdir chig‘iriqlardan qanchalik toblanib, har qanday sharoitda o‘zaro mexr va tinchlika asoslangan tamoyilda hayot kechirish tarzi misolida ko‘rmog‘imiz mumkin.

Xalqimiz ongi shururida tinchlik bu oliy ne‘mat ekanligi uning xalqimiz uchun o‘ta axamiyatli va oliy qadriyat sifatida qaralmog‘i e‘tiborga loyiqdir.

Bugungi ulg‘ayib kelayotgan yosh avlodning avvalo hayotda qo‘ygan oliy maqsadlarini belgilab olishlari uchun qulay sog‘lom muhit yaratishning bugungi kundagi dolzarb muomlari sifatida quydagilarni aytib o‘tishni lozim topdik.

Birinchidan oiladagi sog‘lom muhitning mavjudligi ota-onaning farzand oldidagi majburiyatini faqat moddiy tomondan emas balki ma‘nan kamol topishi uchun bor bilimlarini o‘z e‘tiborlarni farzandiga qaratishi lozim zero bugungi kunda ota-ona farzandning oziroq har-hashasini eshitmay deb o‘z bollasining qo‘liga uyali aloqa vositasini tutqazib qo‘yishi bu farzand tarbiyasidagi ilk e‘tiborsizlikning kelgusida katta muamolarga sabab bo‘lishning birgina misoli sifatita ko‘rishimiz mumkin.

Ikkinchidan ta‘lim jarayonida yoshlarimiz uchun keng imkoniyatlardan foydalanish uchun kerakli bilimlar berilmog‘i lozim, zero hozirgi kundagi yoshlar jamiyati imkoniyatdan foydalanishdan ko‘ra yo‘q imkoniyatlarni talqin qilishdan iborat bo‘lib qolmoqda. Buning misolida hozirgi kunda jahon sahanlarida olimpiada chempionlarimiz soni 220 dan oshmaydi lekin ommaviy madaniyatning yangi talqinchilari kasbini o‘rgangan Tik-tok, Instagram, Youtbe, sahifalarida o‘z obunachilarga ega bo‘gan blogerlar soni 976 dan ziyod ularning faqat barmoq bilan sanagulik qismning faoliyati haqida ijobiy fikirlarni aytishimiz mumkin.

Uchinchidan jamiyatdagi turli hil qarashlarni o‘z ongida bilim sifatida shakilantirish kabi noixtiyoriy qarashlardan tiyilmog‘i lozim bugungi kunda axborot almashuvi chegara bilmaydi, shunday shidatli zamonda jamiyatimiz hayotida yangicha qarashlar paydo bo‘ldiki undan ma‘naviyatni izlashning imkoni yo‘q, buning isboti sifatida bugungi kunda “yomon habar tez tarqaladi” degan iboraning ishlatilishni o‘rinli deb hisobladik. Bugun turli ommaviy axborot vositalarning asosiy faoliyati salbiy ma‘lumotlarni tarqatish orqali o‘z kuzatuvchilarini sonini ortirish mumkinligini anglagan holda rasman ma‘lumotlarni tarqatishadi zero ba‘zida ma‘lumotlarning qanchalik aniq ekanligi faqat ma‘lumotni berayotgan shaxsga ma‘lum.

Ma‘naviy xavfsizlik aytish keraki milliy xafsizligimizning ajralmas qismi bunda halqimiz tomonidan e‘tirof etilgan ummummilliy ma‘nfatlarning himoya qilinishi alohida o‘rin egallaydi.⁵ Insoniyat tarixidan ma‘lumki inson ma‘naviyatiga qarshi turgan tahdidlar qurolli tahdidlardan ancha havfliroq sanaladi. Barcha zamonlarda

⁵ Umarov E. Abdullayev M. “Ma‘naviyat asoslari” T.: ”Cho‘lpon”-2006. 63-bet.

muayyan mamlakatni zabt etish uchun birinchi navbatda xalqning ruhiyati, ma'naviyatiga va uning qadriyatlariga bolta urishga harakat qilishgan.

Ushbu harakatlar bugungi kunda ham ma'lum ma'noda mavjud faqat ularning shakli shamoyili o'zgarib zamonaviy ahamiyat kasb etdi, buning misolida quydagilarni aytib o'tishimiz mumkin:

- diniy ekstrimistik tashkilotlarning o'z g'oyaviy ta'sirlarini yoshlar ongiga o'tkazishga qilinayotgan harakatlar,

- yevropa madaniyati ta'sirining yoshlar ongida aks etilishi, piarchilik, bachkanalik, saviyasizlik kabi ilatlarning shakilanishi,

- jamiyat hayotida insonlar o'rtasidagi ijtimoiy muhitning tubdan o'zgarishi loqaydlik, befarqlik, bepisandlik, tabaqachilik kabi illatlarning avj olishi misolida talqin qilishimiz mumkin.

Har qanday buzg'unchi g'oyaga asoslangan tahdidlardan himoyalashning yagona yo'li bu avvallo yoshlar ongida ular haqida ma'lumot bazasini shakillantrish, ularga kerakli bilimlarni yetkazish, ma'naviy-ma'rifiy chora tadbirlar ko'lamini kengaytirishdan iborat.

XULOSA:

Xulosa o'rnida shuni aytish keraki har bir shaxs ma'naviyati bevosita millat ma'naviyatiga bog'liq holda shakilanadi. Bugungi kunda yoshlarimiz ongida vatanparvarlik, insonparvarlik, jo'mardlik kabi tushunchalar ular uchun ahamiyatsiz bo'lib qolmoqda zero buning sababi sifatida bir qator omillarni sanab o'tishimiz mumkin oiladagi muhit, ta'limda, jamiyatda yoki axborot hurujlarini aytishimiz o'rinli bo'ladi. Bugungi kunda yoshlar ongida ma'naviy xavfsizlikni ta'minlash bu ular ongida birinchi navbatda o'z oldilarga qo'ygan maqsadlarni teran angelaydigan o'z yo'lida og'ishmay ildamlaydigan bir so'z bilan aytikanda komil inson sifatida talqin qilishimiz mumkin. Ma'naviy xavfsizlikni ta'minlash bu birinchi navbatda g'oyaning asl mazmunini angelaydigan uning qanday g'oya ekanligiga qarab mustaqil fikir bildira oladigan muhitning shaxsda tarbiyalash sifatida aytishimiz mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Mirziyoyev Sh,M. “Erkin va farovon, demokratik o'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz” T.: “O'zbekiston” – 2017.
2. Mirziyoyev Sh.M. “Milliy taraqqiyot yo'limizni qa'tiyat bilan davom e'tirib yanggi bosqichga ko'taramiz” T.: “O'zbekiston”.
3. Karimov I.A. “Yuksak ma'naviyat yengilmas kuch” T.: “O'zbekiston” -2008.
4. Imomnazarov M. “Milliy ma'naviyat bosqichlari” T.: – 2010.
5. Umarov E. Abdullayev M. “Ma'naviyat asoslari” T.: ”Cho'lpon”-2006.